

“NAZM UL-JAVOHIR” ASARIDAGI RUBOIYLAR POETIKASI

Anvarova Marjona

Fargʻona davlat universiteti Filologiya va tillarni
oʻqitish oʻzbek tili yoʻnalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asari ruboiylar poetikasining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan. Unda struktural metod asosida “Nazm ul-javohir”ning eng muhim qofiya qirralari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: diyonat, din donolik, ibodat, daho, olam, e'tiqod, ibodat, axloq.

Annotation: This article is dedicated to studying the unique features of the rubai poetry in Alisher Navoi's work “Nazm ul-javohir.” Using the structural method, it reveals the most important aspects of rhyme in “Nazm ul-javohir.”

Keywords: devotion, religiosity, worship, genius, universe, belief, worship, morality.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению уникальных особенностей рубай в произведении Алишера Навои «Назм ул-жавохир». На основе структурного метода раскрыты наиболее важные грани рифмовки в «Назм ул-жавохир».

Ключевые слова: религиозность, набожность, поклонение, гений, мир, вера, богослужение, нравственность.

Kirish:

“Nazm ul-javohir” asari tarixiy va diniy asarlaridan biri hisoblanadi. Sharqda Hazrat Ali hikmatlarini she'rga solish an'anasi mavjud bolganligi bois, turkiy tilda hali biror shoir bu hikmatlarni badiiy talgin etmagani sababli shoir ko'nglida mazkur hikmatlar asosida turkiy tilda asar yozish haqida orzu qilardi va "Nazm ul-javohir" asarining yaratilishiga asosiy sabab bo'lgan bo'lsa, Husayn Boyqaroning "Risola"

asarini bitishi va unda Alisher Navoiyga yuksak ehtirom ko'rsatishi hamda Balxdan Hazrat Ali gabrining qayta topilishi munosabati bilan u yerda mazkur zot uchun maqbara qurilishi ishlarida shaxsan buyuk shoirning o'zi ham ishtirok etgani ana shu niyatning amalga oshishi yolida jiddiy bir turtki bo'lgan. Hazrat Ali hikmatlari asosida bitilgan "Nazm ul-javohir" asari "sahli mumtane" (tushunilishi oson, ammo o'xshatib yozish imkonsiz) uslubida yozilgan bo'lib, unda hikmatlardagi murakkab masalalarga oddiy o'quvchi ham tushuna olishi uchun sodda, ravon tarzda sharh va izohlar berilgan.

Nazm ul-javohir"ning o'rganilishi uning yaratilgan vaqtidayoq boshlanganini mashhur tarixchi G'iyosiddin Xondamir "Makorim ul-axloq" asarida qayd etgan va shunday yozgan edi: "...Va shu kabi "Nasr ul-laoliy"ning turkiycha tarjimasida ikki yuz oltmish ruboiy nazm qilingandirlarki, uning har to'rt misrasi bir xil qofiya va bir xil radiflidir. Ko'rinishicha, ul hazratdan ilgari hech kim turkiy tilda ruboiy aytmagan, har to'rt misrasi qofiyadosh va radifdosh bo'lganiga nima yetsin."

Adabiyotshunos M.Hakimov "Navoiy aforizmlarining manbalariga doir" maqolasida "Nazm uljavohir" asaridagi ruboiylar folklordagi hikmatli so'zlar zahirida yuzaga kelgan, tarzidagi bahs talab fikrni ilgari suradi. Alisher Navoiy o'z asarida ta'kidlashicha, "...bataxis "Nasr ullaoliy" kim, ul Hazratning valoyat daryosidin chiqqan samin lu'lular..", ya'ni hikmatlarning har birini bir ruboiyda talqin etadi.

"Nazm ul-javohir" hikmat ruboiylarining mavzuiy-g'oyaviy tadgigi va irfoniylar manbalari" deb nomlangan. Asardagi hikmat ruboilari Qur'oni karim va hadisi sharifdagi haqiqatlarga uyg'un bo'lgan Hazrati Ali (r.a.) hikmatlari asosida Alisher Navoiyning hayotiy kuzatishlari va xulosalari bilan boyitilgan holda nazmga tortilgan. "Nazm ul-javohir" asarida hikmatlar talqini bo'lgan ruboiylar mavzu va g'oyasiga ko'ra rang-barang bo'lib, ularning barchasi komil inson konsepsiyasi atrofida birlashadi.

Kim olam aro diyonati yo'qtur aning,
Din nuktasida fatonati yo'qtur aning,
Dindor ulkim, ziyonati yo'qtur aning,
Yo'q din angakim amonati yo'qtur aning.

“Nazm ul-javohir”da 249-raqam bilan tartiblanib kelgan bu ruboiy “Lo dina liman lo amonata lahu sadaqa” (“Amonati yo‘qning dini yo‘q”) hikmati asosida yozilgan bo‘lib, unda juda oddiy va ayni damda o‘ta muhim masala “Dindor kishi qanday bo‘ladi?” degan savolga javob beriladi. Ruboiyning ilk misrasi “Kim olam aro...” deb boshlanishi unda aytilajak fikrning olamshumul ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Baytda qo‘llangan “diyonat” so‘zi ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, uning birinchi ma’nosi “dindorlik”dir. Ushbu ma’noda baytdan “diniy ilmi yo‘q kishining din haqida so‘zlashga qobiliyati (fatonati) yo‘q ma’nosi anglashiladi. Darhaqiqat, hamma zamonlarda ham maxsus diniy bilimi bo‘lmay turib, aqidaviy masalalarda so‘z yuritishdan hayiqmaydigan kishilar bo‘lgan. Ularning bilib-bilmay bergan “fatvo”lari diniy ahkomlarning buzilishiga, odamlar o‘rtasida turli fitnalarning avj olishiga olib kelgan.

Har kimga livoyi charxi farsud kerak,
Ko'nglida sipehr dardi mavjud kerak,
Har kimgaki, ko'ngli dardi nobud kerak,
Har neki qazodin o'lsa, xushnud kerak.

"Davo ul-qalb ir-rizou bil-qazoi", ya'ni "Qalbning shifosi - qazoga rozi bo'lish" hikmati asosida yozilgan mazkur ruboiyda badiiy g'oya ramziy ifodalar vositasida taqdim etilgan. Birinchi misrada "livoyi charxi farsud", ya'ni nopok charxning bayrog'i haqida so'z boradi. Bayroq obrazi mumtoz adabiyotda maqsadga erishish ma'nosini anglatadi. Qadimda podshohlar biror g'alabaga erishganlarini bayroq ko'tarish yoki o'rnatish bilan bildirganlar. Charx esa bu yerda dunyo ma'nosida bo'lib, u ikkinchi misradagi "sipehr" (osmon) so'zi bilan bog'lanadi va baytdan shunday mazmun yuzaga keladi: "Kimga nopok charxning bayrog'i - dunyo ustidan hukmronlik kerak bo'lsa, demak, uning ko'nglida dunyo dardi bor". Ya'ni kimning qalbida dunyoning o'tkinchi hoy-u havaslari bolsa, demak, u tuganmas dard-u tashvishlarga muhtalodir.

Muallifning turkiy ruboiylar ko'rinishida in'ikos topgan hikmatlar sharhida tasavvufga alogador bir qator istilohlardan unumli foydalanilgan. Asarda tasavvuf maslagi, tariqat maqomlari haqida ilmiy-nazariy ta'riflar berilmasa-da (zero,

muallifning maqsadi bu emas), axloqiy-falsafiy, irfoniy-tasavvufiy g'oyalarni ifodalashda bevosita va bilvosita bunday istilohlarga murojaat qilingan. Jumladan, sidq ahli, nafs, tavba, vara', zuhd, faqr, sabr, xavf, rajo, tavakkul, rizo, shukr, ehson, sadaqa va shu kabi tushunchalar Alisher Navoiyning irfoniy-tasavvufiy, ma'rifiy goyalarini ifodalashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Алишер Навоий. Назм ул- жавоҳир [Электронный ресурс]. URL: <http://navoi.natlib.uz>:
2. Ражабова М. Алишер Навоий “Назм ул-жавоҳир” асарининг манбалари ва бадиияти: Фил. фан. номз. дисс. –Тошкент. 2007.
3. Ёўлдошев. Бадиий матн лингвопоэтикаси. -Т.: Фан, 2008, 127-бет.
4. Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. МАТ. 20 жилдлик. 15-жилд. – Т.: Фан, 1999. (Alisher Navoi. Nazm ul-jawahir. MAT. 20 volumes. Volume 15. - T.: Fan, 1999.)
5. Khujaeva, Durdona Zohidova Shoirakhon. "CREATIVE HISTORY OF ALISHER NAVOI'S WORK" NAZM UL JAVAHIR." Journal of Modern Educational Achievements 5.5 (2023): 436-441.
6. Khujaeva Shoirakhon. (2023). The Artistry of Alisher Navoi's work “Nazm Ul-Javohir”. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 403–408.